

## **BOLALARDA TASHABBUSKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA TARBIYACHINING ROLI**

*Mualliflar: Pedagogika va psixologiya  
kafedrasи o‘qituvchisi*

**Kadirova Omadxon,**  
*Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi  
201-guruh talabasi*  
**Xudoyqulova Mastura**

**Annotatsiya (o‘zbek tilida):** Maqola bolalarda tashabbuskorlikni rivojlantirishda oila va tarbiyachilarning roli hamda ahamiyatini tahlil qiladi. Bolalarda o‘z fikrini erkin ifodalash, yangi g‘oya va tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish oilaviy muhit va pedagogik yondashuvlar orqali rivojlantiriladi. Ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan ko‘rsatiladigan mehr-ehtirom, bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ijobiy rag‘batlantirish metodlari, shuningdek ota-ona va tarbiyachining yaqin hamkorligi, bolalarga bo‘lgan ishonch va ijobiy rag‘batlantirish tashabbuskorlikni shakllantirishda muhim omillar ekanligi ko‘rsatiladi.

**Annotatsiya (ingliz tilida):** This article examines the roles and importance of family and educators in developing initiative in children. It discusses how a supportive home environment and pedagogical approaches encourage children to express ideas freely and pursue new initiatives. Parental and educator affection, positive reinforcement, and close cooperation between parents and teachers are highlighted as factors that foster initiative and creative independence in children.

**Kalit so‘zlar (o‘zbek tilida):** tashabbuskorlik, ijodkorlik, ota-ona, tarbiyachi, hamkorlik.

**Kalit so‘zlar (ingliz tilida):** initiative, creativity, parents, educator, cooperation.

### **Kirish**

Bolalarda tashabbuskorlik ularning ijodiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tashabbuskorlik – erkin fikrlash, yangi g‘oyalarni amalga oshirish va muammolarni mustaqil hal etish intilishi bo‘lib, ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismidir. Ko‘pincha ota-onalar farzandning aql-zakovati va mantiqiy tafakkuriga ustunlik berib, ijodiy va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ahamiyat bermasligi katta xato hisoblanadi. Tarbiyaviy jarayonda ota-onalar va pedagoglarning bolalarning tashabbuskorligini rivojlantirishdagi o‘rni alohida e’tirof etiladi.

## Oila va tashabbuskorlik

Oila — bolaga birinchi va assosiy tarbiya muhitini taqdim etuvchi asosiy omildir. Oilaviy muhit bolalarda o‘ziga ishonch, erkinlik va ijodkorlik ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi.

- Farzandingizni ijodiy faoliyatning turli turlari bilan tanishtiring (masalan, rasm chizish, qo‘l mehnati, pazandalik, lego va boshqalar); turli tashabbuslarni sinab ko‘rishdan qo‘rmaslik kerak, chunki bola oxir-oqibat o‘ziga yoqqan faoliyatni topadi.

- Bolalarning ijodiy ishlarini tanqid qilmaslik lozim; har bir xato yoki noodatiy g‘oya yangi imkoniyat va o‘sish manbai ekanini ularga anglating.

- Ota-onalarning o‘zi ham ijodiy faoliyat bilan shug‘ullansa, bu oilaviy ijodiy tandemni kuchaytiradi. Agar ota-onalar ma’lum ijodiy qobiliyatlarga ega bo‘lsa, bu farzandda ijodiy va tashabbuskorlik ruhiyatini yanada qo‘llab-quvvatlaydi.

Oilada bolaga ko‘rsatiladigan mehr va ishonch uning yangi tashabbuslar qilishiga yordam beradi. Bolalarga “Sen bu ishni uddalaysan”, “Menga ishon, sen buni qila olasan” kabi ijobiy iboralar aytilishi bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch va tashabbuskorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, ota-onalar ertaklar, qo‘shiqlar va o‘yinlar orqali farzandning ijodiy fantaziyasini rag‘batlantirishi lozim; bolaga o‘z tasavvurini erkin ifoda etish uchun sharoit yaratish kerak. Shu bilan birga, ota-onalar bolalarning tashabbuskorligini rivojlantirishda pedagog bilan yaqindan hamkorlik qilishlari muhimdir.

## **Tarbiyachi va tashabbuskorlik**

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi ham bolalarda tashabbuskorlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tashabbuskorlikni rag‘batlantirish uchun tarbiyachi ijodkor yondashuvlar va mos pedagogik usullarni qo‘llashi lozim. Tarbiyachi didaktik ishlarini o‘zi tayyorlab, bolalarni faol mashg‘ulot va o‘yinga jalb qilishi, ularning aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi kerak. Masalan:

- Tarbiyachi bolalar oldiga aniq va o‘rtacha murakkablikdagi topshiriqlar qo‘yishi zarur; bunday vazifalar bolada tashabbuskorlik va faoliyatga qiziqishni kuchaytiradi va mas’uliyat hissini uyg‘otadi.

- Tarbiyachi yangicha pedagogik yondashuvlarni va ijodkor g‘oyalarni joriy qilishi, bolalarga erkin ijodiy faoliyat uchun imkoniyat berishi lozim; ijodiy faoliyatga rag‘batlantirish tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi samimiy aloqani mustahkamlaydi.

- Tarbiyachi maktabgacha tarbiya jarayonida bolalarni atrof-muhitdagi voqealar bilan tanishtirib, ularni ijtimoiy hayotning turli shakllarida ishtiroy etishga tayyorlashi kerak. Bu bolalarda tashabbus ruhini yanada mustahkamlaydi.

- Tarbiyachi ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilishi zarur: bolaning xulq-atvoridagi kamchiliklarni bartaraf etishda tarbiyachi va ota-onalar birgalikda ishlashi

muhim. Masalan, bola juda tortinchoq bo‘lsa, tarbiyachi va ota-onalarning birgalikda uni muhitga qo‘shishning usullarini ishlab chiqishlari kerak.

- Mutaxassislar tavsiyasiga ko‘ra, tarbiyachi bolalarni rag‘batlantiruvchi iboralarni qo‘llashi zarur. “Sen uddalaysan!”, “Sen buni o‘zing bajara olasan!” kabi so‘zlar bolada o‘z kuchiga va tashabbuskorligiga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Umuman olganda, tarbiyachi mehribon bo‘lib, bolalarni qobiliyatlarini va qiziqishlariga muvofiq tarzda rag‘batlantirishi kerak. Shunday qilib, tarbiyachi ijodkorlik asosida o‘yin va mashg‘ulotlarni tashkil etib, bolalarning tashabbuskorligini quvvatlab boradi.

### **Xulosa**

Tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, bolalarda tashabbuskorlikni shakllantirishda oilaviy muhit va pedagoglarning yagona maqsad sari sa’y-harakati zarur. Ota-onalar farzandining tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlab, unga ishonch ko‘rsatishi, tarbiyachi esa ijobiy pedagogik yondashuvlar va didaktik usullar bilan qo‘llab-quvvatlasa, bola o‘z qobiliyatini to‘liq namoyon qiladi. Shu bilan birga, ota-onalarning tarbiyachi tomonidan bolalarga ko‘rsatilayotgan mehr-shafqat, rag‘bat va hurmatni uyg‘unlashtirish – bolalarda tashabbuskorlik va ijodkorlikni rivojlantirishning muhim omildir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Matmusayeva M.A., Esonaliyeva O.S. (2023). Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. Central Asian Journal of Education and Innovation, 2(4), 70–74.
2. Fozilova O., Islomxo‘jayeva G.Q. (2023). Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari. Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 1(4), 26–30.
3. Cho‘liyeva N.S. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalashda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy fan va ta’lim tarbiya, 11(2), 98–105.
4. Tarbiyachi bolalarga aytishi mumkin bo‘lmagan beozor iboralar. Kun.uz, 02.05.2018.